V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

MUHIDDINOVA OQILA TULQIN QIZI

YUQORI TARTIBLI TENGLAMALAR UCHUN BOSHLANG‘ICH-CHEGARAVIY VA TESKARI MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2022

UDK: 517.927 517.95

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of thesis abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

MUHIDDINOVA OQILA TULQIN QIZI

YUQORI TARTIBLI TENGLAMALAR UCHUN BOSHLANG‘ICH-CHEGARAVIY VA TESKARI MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2022

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/FM raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingiliz, rus (резюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://kengash.mathinst.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ashurov Ravshan Radjabovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Karimov Erkinjon To’lqinovich fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika Instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2022 yil « 20 » dekabr soat 17:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika Institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (153-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2022 yil « 2 » dekabr kuni tarqatildi.
(2022 yil « 2 » dekabrdagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

U.A.Roziqov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., professor

J.K.Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A.A.Azamov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar ba’zi hollarda matematik fizikaning tenglamalari, masalan, sterjenlar, plastinalar va h.k. jismlarning tebranishlariga doir ko‘plab masalalar yuqori tartibli differensial tenglamalariga keltiriladi. Tabiiyki, bu kabi masalalarning fizik ma’nosidan kelib chiqib, xos funksiyalarning ko‘rinishi noma’lum bo‘lgan holida, ixtiyoriy sohalar uchun shunga o‘xshash masalalarni ko‘rib chiqish juda katta qiziqish uyg’otadi. Ushbu dissertatsiya ishi elliptik qismi ixtiyoriy tartibdagi differensial ifodaga ega bo‘lgan va ixtiyoriy ko‘p o‘lchamli yetarlicha silliq chegarali sohada aniqlangan klassik diffuziya va subdiffuziya differensial tenglamalari uchun to‘g’ri va teskari masalalarini klassik Furye metodi yordamida o‘rganishga bag’ishlangan.

Hozirgi kunda kasr tartibli va xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasi bo‘yicha izlanishlarni rivojlantirish, mamlakatimiz taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan matematika, fizika, geologiya va biologiya fanlariga e’tibor borgan sari yanada kuchaymoqda. Xususan, matematikaning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan, amaliy xususiyatga ega bo‘lgan differensial tenglamalar va matematik fizika fanini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ko‘pgina tadqiqotlar subdiffuziya tenglamalarining o‘ng tomonini aniqlash bo‘yicha teskari masalalarga keltiriladi. Lekin masalalarning barchasida subdiffuziya tenglamasining elliptik qismi oddiy differensial ifoda bo‘lgan holi qaralgan. Shuning uchun elliptik qismi ixtiyoriy ko‘p o‘lchamli sohalarda aniqlangan ixtiyoriy tartibdagi elliptik operatori qatnashgan parabolik, giperbolik hamda subdiffuziya tenglamalari uchun to‘g’ri va teskari masalalarning yechimlarini qurish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda biologiya, geologiya, matematika va fizika kabi tabiiy va hayotiy fanlarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, kasr tartibli va xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasini ishlab chiqishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki bu nazariya mexanika, elektronika, boshqaruv nazariyasi, fiziologiya va biologik sistemalardagi ko‘plab jarayon va hodisalarni tushunishga yordam beradi. Yuqorida ta’kidlanganidek, muhim yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish, matematika fanining asosiy vazifasi va faoliyat yo‘nalishi etib belgilandi[1]. Mamlakatimiz mutaxassislari tomonidan mazkur sohalarda salmoqli natijalar qo‘lga kiritilib, ular yuqoridagi farmon ijrosini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda differensial tenglamalar va matematik fizika kabi muhim yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro miqiyosda olib borilayotgan tadqiqotlar, fundamental tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishi sifatida qaralayotgani quvonarlidir.

Mazkur dissertatsiya ishining predmeti va tadqiqot ob’yekti O‘zbekiston

[1] O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 maydagi «O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish to’g’risida » gi № 292-sonli qarori.

Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi" haqidagi farmonlarida belgilangan vazifalariga mos keladi, 2017 yil 17-fevraldagi PQ-2789 "Fanlar Akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida"gi Prezident qarori, 2018 yil 27 apreldagi "Innovatsion g’oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida"gi PQ-3682-sonli qarori va 2019 yil 9 iyuldagi "Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida"gi PQ-4387 sonli Prezident qarori hamda 2020 yil 7 maydagi "Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida"gi PQ-4708 sonli Prezident qarori, bundan tashqari boshqa qonun va fundamental fanlarga doir boshqa qarorlar ijrosiga mos keladi.

Tadqiqotning Respublikada fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnalogiyalar rivojlanishining IV "Matematika, mexanika va informatika" ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Boshlang’ich-chegaraviy masalalarning klassik yechimining mavjudligi va yagonaligi V.A.Il’in , O.A. Oleinik, O.A. Ladyzhinskiy, P.E. Sobolevskiy, M.A.Krasnoselskiy va boshqalar kabi ko‘plab mashhur matematiklar tomonidan o‘rganilgan. V.A. Il’inning 1960-yilda nashr etilgan fundamental ishida ushbu yo‘nalishdagi ishlarga sharh berilgan va muallifning so‘nggi natijalari taqdim etilgan. Bu yerda elliptik qismi ikkinchi tartibli simmetrik differensial ifoda bo‘lgan tenglamalarga klassik Furye usuli qo‘llanilgan. Elliptik qismi ikkinchidan yuqoriroq tartibga ega bo‘lgan holat Krasnoselskiy va boshqalarning mashhur monografiyasida ko‘rib chiqilgan. Bu ishda Furye usuli yordamida boshlang’ich-chegaraviy masalaning boshlang’ich berilganlari elliptik operator darajasining aniqlanish sohasiga tegishli bo‘lgan holda yechimning mavjudligi isbotlanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, bir tomondan, ushbu monografiyada yechimning yagonaligi masalalari ko‘rib chiqilmagan, ikkinchi tomondan, ushbu monografiyada keltirilgan tasdiqlarning shartlarini tekshirish oson emas. Yana shuni ham ta’kidlash kerakki, ushbu monografiyada umumlashgan yechim tushunchasi kiritilmagan va ularning mavjudligi masalalari o‘rganilmagan.

Kasr hosilali differensial tenglamalar nazariyasi so‘nggi bir necha o‘n yilliklarda, asosan, fan va texnologiyaning ko‘plab bir-biridan yiroq ko‘rinadigan sohalarida qo‘llanilishi tufayli katta mashhurlik va ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘z navbatida, nazariyaning yetarlicha ommalashganligi mutaxassislar e’tiborini tortdi, bu esa kasr tartibli differensial tenglamalarning matematik jihatlari va ularni yechish usullari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlarga sabab bo‘ldi. Subdiffuziya tenglamalari uchun boshlang’ich-chegaraviy masalalar ko‘plab mutaxassislar tomonidan o‘rganilgan. Ulardan xususan, A.A. Kilbasning maqolalaridagi tenglamalarning elliptik qismi asosan bir o‘lchovli differensial ifoda u_{xx} ko‘rinishda bo‘lgan holi o‘rganilgan. Laplas

operatori ishtirok etgan bunday tenglamalar A.V. Pskhu maqolalarida ko‘rib chiqilgan va R^N butun fazoda aniqlangan o‘zgarmas koeffitsientli psevdodifferensial operatorli tenglamalar S. Umarovning ishlarida o‘rganilgan. M. Ruzhansky, N. Tokmagambetov va B.T.Torebeklarning birgalikda yozgan maqolasida elliptik qismi sifatida o‘z-o‘ziga qo‘shma operator qaralgan, ammo bu maqolada faqat umumlashgan yechim uchun yechimning mavjudligi o‘rganilgan.

Shuningdek, ko‘pgina tadqiqotlar subdiffuziya tenglamalarining o‘ng tomonini aniqlash bo‘yicha teskari masalalarga bag’ishlangan. Bu maqolalarning deyarli barchasida subdiffuziya tenglamasining elliptik qismi oddiy differensial ifoda bo‘lgan holi o‘rganilgan. Bulardan istisno bo‘lgan maqolalar N.A. Asl va D.Rostamy, Z. Li, Y. Liu va M. Yamamoto, S.A. Malik va S. Aziz, W. Rundell va Z. Zhang, L. Sun, Y. Zhang va T. Weilarning maqolalari bo‘lib, ularda elliptik qismi Laplas operatori yoki ikkinchi tartibli operator bo‘lgan holi ko‘rilgan va ushbu maqolalarda umumlashgan yechim mavjudligi o‘rganilgan. M. Ruzhansky, N. Tokmagambetov va B.T. Torebeklarning maqolasida elliptik qismi diskret spektrga ega bo‘lgan ixtiyoriy elliptik operator bo‘lgan holi uchun Kaputo kasr hosilali subdiffuziya tenglamasining o‘ng tomonini aniqlash bo‘yicha teskari masalasi o‘rganib chiqilgan va mualliflar umumlashgan yechimning mavjudligi va yagonaligini Furye usuli yordamida isbotlagan. M. Ruzhansky, N.Tokmagambetov va B.T. Torebeklarning maqolasida va boshqa ko‘pgina maqolalarda, jumladan N.A. Asl va D. Rostamy, Z. Li, Y. Liu va M. Yamamoto, W. Rundell va Z. Zhang, L. Sun, Y. Zhang va T. Weilarning maqolalarida Kaputo hosilasi kasr hosila sifatida qaralgan. K.M. Furati, O.S. Iyiola, M. Kirane hamda S.A. Malik, S. Azizlarning ishlarida subdiffuziya tenglamasidagi kasr hosilasi ikki parametrli umumlashtirilgan Xilfer kasr hosilasidir. Shuningdek, K.M. Furati, O.S. Iyiola va M. Kirane, Z. Li, Y. Liu va M. Yamamoto, L. Sun, Y. Zhang va T. Weilarning maqolalarida subdiffuziya tenglamasining o‘ng tomonini aniqlashning teskari masalalari bilan bog’liq bo‘lgan maqolalar tahlili borligiga e’tibor berishimiz mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, elliptik qismi ixtiyoriy chegaralangan sohada aniqlangan ixtiyoriy tartibdagi elliptik operator bo‘lgan subdiffuziya tenglamasining o‘ng tomonini klassik ma’noda aniqlash ilgari hech kim tomonidan ko‘rib chiqilmagan, o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining F-FA-2021-424-sonli ilmiy tadqiqot grantining rejalashtirilgan mavzusiga muvofiq amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi ko‘p o‘lchamli sohada aniqlangan ixtiyoriy tartibdagi elliptik operatori qatnashgan parabolik, giperbolik hamda subdiffuziya tenglamalari uchun to‘g’ri va teskari masalalarning klassik yechimlarini topishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Elliptik qismi ixtiyoriy N o‘lchovli sohada aniqlangan ixtiyoriy elliptik operator bo‘lgan giperbolik va parabolik tenglamalar uchun boshlang’ich-chegaraviy masalalarning klassik ma’nosida yagona yechimga ega ekanligini isbotlash.

Umumlashgan yechim tushunchasini kiritish va ularning mavjudligi masalalarini o‘rganish.

Elliptik qismi ixtiyoriy *N* o‘lchovli sohada aniqlangan ixtiyoriy elliptik operator bo‘lgan Kaputo va Riman-Liuvill hosilali subdiffuziya tenglamalari uchun boshlang’ich-chegaraviy masalalarining klassik ma’nosida yagona yechimga ega ekanligini isbotlash.

Elliptik qismi ixtiyoriy *N* o‘lchovli sohada aniqlangan ixtiyoriy elliptik operator bo‘lgan Kaputo va Riman-Liuvill hosilali subdiffuziya tenglamalarining o‘ng tomonini aniqlash bo‘yicha teskari masalalarning klassik ma’nosida yagona yechimga ega ekanligini isbotlash. Teskari masalaning umumlashgan yechimi tushunchasini kiritish va ularning mavjudligi masalalarini tekshirish.

Tadqiqot ob’ekti. Klassik giperbolik va parabolik tenglamalar, elliptik qismi ixtiyoriy N o‘lchovli sohada aniqlangan ixtiyoriy elliptik operator bo‘lgan Kaputo va Riman-Liuvill hosilali subdiffuziya tenglamalari.

Tadqiqot predmeti. Boshlang’ich-chegaraviy masalalari va tenglamalarning o‘ng tomonini aniqlashning teskari masalalari.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda funksional analiz usullari, spektral nazariya va Furye usullari qo‘llaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

elliptik qismi ixtiyoriy o‘lchovli sohada aniqlangan ixtiyoriy elliptik operator bo‘lgan giperbolik va parabolik tenglamalar uchun boshlang’ich-chegaraviy masalalarning klassik ma’nosida yagona yechimga ega ekanligi isbotlangan;

elliptik qismi ixtiyoriy o‘lchovli sohada aniqlangan ixtiyoriy elliptik operator bo‘lgan Kaputo va Riman-Liuvill hosilali subdiffuziya tenglamalari uchun boshlang’ich-chegaraviy masalalar yagona yechimga ega ekanligi isbotlangan;

ixtiyoriy o‘lchovli sohada aniqlangan ixtiyoriy elliptik operator bo‘lgan Kaputo va Riman-Liuvill hosilali subdiffuziya tenglamalarining o‘ng tomonini aniqlash bo‘yicha teskari masalalarning klassik va umumlashgan yechimlarning mavjud va yagonaligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi. Olingan natijalar va dissertatsiyada qo‘llanilgan usullar oliy o‘quv yurtlari magistrantlari va doktorantlari uchun bitiruv kursi sifatida o‘qitilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Natijalar funksional analiz usullari, spektral nazariya va Furye usuli yordamida olingan. Olingan barcha natijalar matematik jihatdan to‘g’ri.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqotda olingan ilmiy natijalar turli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun to‘g’ri va teskari masalalarni yanada chuqurroq tadqiq qilishda qo‘llanilishi mumkin. Xususan, ushbu dissertatsiya ishida ishlab chiqilgan texnika va usullardan to‘g’ri va teskari masalalarning yechimini topishda foydalanish mumkin.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar differensial operatorlar, jumladan, kasr tartibli chiziqli differensial tenglamalarning sistemalari, involyutsiyali differensial modellar, kasr tartibli Shturm-Liuvil operatorlari va boshqalari uchun to‘g’ri va teskari masalalar nazariyasida qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yuqori tartibli tenglamalar uchun

boshlang’ich-chegaraviy va teskari masalalari bo‘yicha olingan natijalar asosida:

subdiffuziya tenglamalarining boshlang’ich-chegaraviy va teskari masalalari uchun topilgan yechimlaridan AAAA-A19-119072290002-9 raqamli «Kamchatkaning tabiiy ofatlar-zilzilalar va vulqon otilishi» mavzusidagi xorijiy grant loyihasida zilzilaning operativ xabarchisi bo‘lgan radioaktiv radon gazining tuproqdan atmosferaning sirt qatlamiga o‘tishini tasvirlashda foydalanilgan (Vitus Bering nomidagi Kamchatka davlat universitetining 2022 yil 24-oktyabrdagi №44-12-sonli ma’lumotnomasi, Rossiya Federatsiyasi). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi geofizikaning teskari masalalarini yechish algoritmlarini ishlab chiqish imkonini bergan;

kasr tartibli hosila qatnashgan subdiffuziya tenglamalarining boshlang’ich-chegaraviy va teskari masalalari uchun topilgan yechimlaridan NIOKTR AAAA-A19-119013190077-1 raqamli «Kasr hisobi va kasr taqsimlangan tartibli differensial tenglamalar» mavzusidagi xorijiy grant loyihasida turli fizikaviy va biologik jarayonlarni matematik modellashtirishda foydalanilgan (Kabardin-Balkar ilmiy markazi Amaliy matematika va avtomatlashtirish institutining 2022 yil 5 maydagi №01-14/30-sonli ma’lumotnomasi, Rossiya Federatsiyasi). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi so‘nggi yillarda turli fizikaviy va biologik jarayonlarni matematik modellashtirishda samarali qo‘llanilayotgan kasr tartibli hosila qatnashgan evolyutsion tenglamalar uchun lokal va nolokal chegaraviy masalalarni yechish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 6 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lib, shundan 6 ta maqola O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilgan, shulardan 4 tasi xalqaro jurnallarda chop etilgan bo’lib, ulardan 3 tasi SCOPUS ma’lumotlar bazalarida indekslangan jurnallarda chop etilgan, 3 tasi respublika jurnallarida chop etilgan va 11 tasi tezisdir.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 126 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Dastlabki ma’lumotlar”** deb nomlangan birinchi bobi yordamchi xususiyatga ega bo‘lib, dissertatsiyani o‘qish qulay bo‘lishi uchun yaratilgan. Bu yerda yangi natijalar yo‘q va faqat kerakli ta’riflar va tasdiqlar to‘plangan.

Asosan, teoremalar isbotsiz holda berilgan. Biroq, ko‘rilayotgan soha $\mathbb{T}^N$ tor bo‘lgan holda, ba’zi teoremalarning juda sodda isbotlari keltirilgan. Masalan, Sobolevning joylashtish teoremasi, Krasnoselskiy va boshqalarning monografiyasidan olingan lemma, A o‘zgarmas koefitsientlik elliptik operatorini kasr tartibli darajasining aniqlanish sohasining Liuvill fazosi bilan ustma-ust tushishi, hamda yetarlicha silliq funksiya Furye qatorining berilgan funksiyaga tekis yaqinlashishi juda sodda tarzda isbotlangan. Ma’lumki, umumiy holatda bu teoremalar isboti ancha murakkabdir.

Keling, birinchi bobdagi ba’zi ta’riflar va tasdiqlarni keltiraylik.

Aytaylik Ω ixtiyoriy N o‘lovli soha bo‘lsin, u N o‘lchovli fazo $\mathbb{R}^N$ bilan ustma-ust tushishi ham mumkin. Juft $m = 2k$ tartibli

$$A(x,D)u = \sum_{0\le|\alpha|\le m} a_\alpha(x)D^\alpha u,\ (x\in\Omega) \tag{1}$$

differensial ifoda $x_0 \in \Omega$ nuqtada elliptik deyiladi, agar unga mos xarakteristik polinom

$$a(x_0,\xi) = \sum_{|\alpha|=m} a_\alpha(x_0)\xi^\alpha \tag{2}$$

ixitiyoriy noldan farqli ξ lar uchun musbat bo‘lsa. (1) differensial ifoda barcha $x_0 \in \Omega$ nuqtalarida elliptik bo‘lsa, u holda bu differensial ifoda Ω sohada elliptik deyiladi. Biz $A(D)$ orqali $A(D) = \sum_{|\alpha|=m} a_\alpha D^\alpha$ ko‘rinishda bo‘lgan bir jinsli elliptik differensial ifodani belgilaymiz

Agar $f \in L_2\left(\mathbb{T}^N\right)$ sinfdan olingan funksiyalar uchun quyidagi norma

$$\|f\|_{L_2^a(\mathbb{T}^N)} = \sum_{n\in Z^N} \left(1+|n|^2\right)^a |\ f_n\ |^2,\ a>0, \tag{3}$$

biror $a>0$ haqiqiy son uchun chekli bo‘lsa, u holda bu sinf *Liuvill sinfi* $L_2^a\left(\mathbb{T}^N\right)$ deb ataladi. $L_2^a\left(\mathbb{T}^N\right)$ sinflari a natural son bo‘lganda $W_2^a\left(\mathbb{T}^N\right)$ Sobolev sinflari bilan ustma-ust tushadi. Demak, $L_2^a(\Omega)$ Liuvill sinfi Sobolev $W_2^a(\Omega)$ sinfining a butun bo‘lmagan hollari uchun umumlashmasidir.

Dissertatsiyaning asosiy natijalari ikkinchi bobdan boshlanadi. **"Giperbolik va parabolik tenglamalar uchun boshlang’ich-chegaraviy masalalar"** deb nomlangan ikkinchi bobning birinchi bo‘limida N o‘lchovli $\mathbb{T}^N$ torda ixtiyoriy tartibli elliptik differensial operator qatnashgan parabolik tenglama uchun boshlang’ich-chegaraviy masala o‘rganildi.

Masala: Quyidagi

$$u_t(x,t) + A(D)u(x,t) = f(x,t),\ \ x\in\mathbb{T}^N,\ 0<t\le T, \tag{4}$$

tenglamaning

$$u(x,0) = \varphi(x),\ x\in\mathbb{T}^N, \tag{5}$$

boshlang'ich shartni qanoatlantiruvchi va $u_t(x,t),\ A(D)u(x,t)\in C\left(\mathbb{T}^N\times(0;T]\right)$ bo'lgan hamda har bir o'zgaruvchisi bo'yicha 2π-davriyikka ega bo'lgan $u(x,t)\in C\left(\mathbb{T}^N\times[0,T]\right)$ funksiyani toping. Biz bu qidirilayotgan $u(x,t)$ funksiyani masalaning klassik yechimi (yoki yechim) deb ataymiz.

Bu yerda berilgan $\varphi(x)$ va $f(x,t)$ funksiyalar har bir o'zgaruvchisi bo'yicha 2π davriydir.

1-teorema. *Aytaylik* $\tau>\dfrac{N}{2}$ *va*

(a) $\varphi(x)\in L_2^{\tau}\left(\mathbb{T}^N\right)$;

(b) $f(x,t)\in L_2^{\tau}\left(\mathbb{T}^N\right)$ *ixtiyoriy* $t\in[0,T]$*uchun;*

(c) $F(t)=\| f(\cdot,t)\|^2_{L_2^{\tau}(\mathbb{T}^N)}$ *funksiya* $[0,T]$ *segmentda uzluksiz bo'lsin.*

U holda (4)-(5), masalaning yagona davriy yechimi mavjud bo'ladi va uni $x\in\mathbb{T}^N$ *da tekis va absolyut yaqinlashuvchi quyidagi qator ko'rinishida yozish mumkin:*

$$u(x,t)=\sum_{n\in Z^n}\left[e^{-A(n)t}\varphi_n+\int_0^t e^{-A(n)(t-s)}f_n(s)ds\right]e^{inx},t\in[0,T]. \qquad (6)$$

Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu bo'limda o'zgarmas koeffitsientli elliptik operator uchun olingan natijalarni, ixtiyoriy N o'lchovli sohada aniqlangan ixtiyoriy tartibli elliptik operator bilan almashtirilgan holda ham osonlik bilan olish mumkin. Buni ko'rsatish maqsadida ikkinchi bobning ikkinchi bo'limida elliptik qismi eng umumiy shaklga ega bo'lgan va ixtiyoriy ko'p o'lchovli sohada (yetarli darajada silliq chegarali) aniqlangan giperbolik tenglamalar uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalar o'rganilgan.

Bu bo'limda

$$u_{tt}+A(x,D)u(x,t)=f(x,t),\quad x\in\Omega,\quad t>0; \qquad (7)$$

tenglama

$$u(x,0)=\varphi(x),\quad u_t(x,0)=\psi(x),\quad x\in\Omega; \qquad (8)$$

boshlang'ich va

$$B_ju(x,t)=\sum_{|\alpha|\le m_j}b_{\alpha,j}(x)D^{\alpha}u(x,t)=0, \qquad (9)$$

$$0\le m_j\le m-1,\quad j=1,2,...,l;\quad x\in\partial\Omega;$$

chegaraviy shart bilan birga o'rganilgan. Bu yerda $f(x,t),\varphi(x),\psi(x)$ va $b_{\alpha,j}(x)$ koeffitsientlar berilgan funksiyalardir.

Qo'yilgan masalani biz Furye metodini qo'llab klassik yechimni topamiz. Bunda quyidagi spektral masalaga kelamiz:

$$A(x,D)v(x)=\lambda v(x)\quad x\in\Omega; \qquad (10)$$

$$B_j(x,D)v(x)=0,\quad j=1,2,...,l;\quad x\in\partial\Omega. \qquad (11)$$

Ushbu spektral masala Agmonning 1962-yildagi mashhur maqolasida o‘rganilgan. Muallif Ω sohanining chegarasi va $A(x,D)$, $B_j(x,D)$ operatorlarining koeffitsientlari ma’lum shartlarni qanoatlantirganda, bu spektral masala $L_2(\Omega)$ da to‘la ortonormal $\{v_k\}$ xos funksiyalar sistemasiga va ularga mos manfiy bo‘lmagan xos sonlari $\{\lambda_k\}$ to‘plamiga ega bo‘lishi isbotlagan. Bu shartlarni (A) deb belgilaymiz va har doim bu shartlar bajariladi deb faraz qilamiz.

Aytaylik τ ixtiyoriy haqiqiy son bo‘lsin. Biz

$$D(\hat{A}^{\tau}) = \{ f(x) \in L_2(\Omega) : \sum |\lambda_k|^{2\tau} |f_k|^2 < \infty \}. \qquad (12)$$

sohada aniqlangan

$$\hat{A}^{\tau} f(x) = \sum \lambda_k^{\tau} f_k v_k(x), \qquad (13)$$

operatorni kiritamiz.

2-teorema. *Aytaylik $f(x,t), \varphi(x), \psi(x)$ funksiyalari (7) va (8) larni qanoatlantirib, berilgan sohalarda uzluksiz bo‘lsin. U holda (7)-(9) aralash masalaning klassik yechimi mavjud bo‘lsa, u yagonadir.*

Endi biz quyidagi formal qatorni tuzib olamiz (bu yerda A musbat operator bo‘lgani uchun hamma k larda $\lambda_k > 0$ dir)

$$u(x,t) = \sum_{k=1}^{\infty} \left[\frac{1}{\sqrt{\lambda_k}} \psi_k \sin\sqrt{\lambda_k}\, t + \varphi_k \cos\sqrt{\lambda_k}\, t + \frac{1}{\sqrt{\lambda_k}} \int_0^t f_k(\xi) \sin\sqrt{\lambda_k}\,(t-\xi)\, d\xi \right] v_k(x). \qquad (14)$$

Bu yerda ψ_k, φ_k va $f_k(t)$ lar mos ravishda, $\psi(x)$, $\varphi(x)$ va $f(x,t)$ funksiyalarining Furye koeffitsientlaridir, masalan $\psi_k = (\psi, v_k)$.

3-teorema. *Aytaylik $\tau > 1 + \frac{N}{2m}$ bo‘lib, $\varphi \in D(\hat{A}^{\tau})$, $\psi \in D(\hat{A}^{\tau-\frac{1}{2}})$ va ixtiyoriy $t \in [0,T]$ lar uchun $f(x,t) \in D(\hat{A}^{\tau-\frac{1}{2}})$ bo‘lsin. Bundan tashqari,*

$$F(t) = \| \hat{A}^{\tau-\frac{1}{2}} f(x,t) \|_{L_2(\Omega)}$$

funksiya $[0,T]$ da uzluksiz bo‘lsin. U holda (7)-(9) aralash masalaning yechimi mavjud va u (14) qator ko‘rinishida bo‘ladi.

4-teorema. *Aytaylik 3-teorema shartlari bajarilsin. U holda (7)-(9) masalaning (14) yechimi uchun quyidagi baho o‘rinlidir:*

$$\sup_{t\in[0,T]} \| u(x,t) \|^2_{L_2(\Omega)} \le C\left[\| \varphi \|^2_{L_2(\Omega)} + \| \psi \|^2_{L_2(\Omega)} + T \int_0^T \| f(x,\xi) \|^2_{L_2(\Omega)}\, d\xi \right], \qquad (15)$$

bu yerda C konstanta T ga bog’liq emas.

Quyida K.B. Sabitovning ta’rifiga asoslanib, (7)-(9) masala uchun umumlashgan yechim tushunchasini kiritamiz:

1-ta’rif. *Aytaylik $\varphi_k(x)$, $\psi_k(x)$ va $f_k(x,t)$ 3-teoremaning shartlarini qanoatlantiruvchi funksiyalar ketma-ketligi bo‘lib, bu funksiyalar $L_2(\Omega)$ fazo normasi*

bo'yicha (oxirgi funksiyalar ketma-ketligi $t \in [0,T]$ *bo'yicha tekis) mos ravishda* $L_2(\Omega)$ *dagi* $\varphi(x)$, $\psi(x)$ *va* $f(x,t)$ *funksiyalarga yaqinlashsin. Agar (7)-(9) masalaning* $\varphi_k(x)$, $\psi_k(x)$ *va* $f_k(x,t)$ *funksiyalarga mos kelgan shunday* $u_k(x,t)$ *yechimlari ketma-ketligi mavjud bo'lsaki, bu ketma-ketlik* $u(x,t)$ *funksiyaga* $L_2(\Omega)$ *da* t *bo'yicha* $[0,T]$ *da tekis yaqinlashsa, u holda bu* $u(x,t)$ *funksiya (7)-(9) masalaning umumlashgan yechimi deyiladi*

5-teorema. *Aytaylik,* $\varphi(x)$, $\psi(x)$ *va* $f(x,t)$ *(barcha* $t \in [0,T]$ *larda)* $L_2(\Omega)$ *fazoga tegishli bo'lsin. U holda (7)-(9) masalaning (14) qator bilan aniqlangan shunday yagona va turg'un umumlashgan yechimi mavjudki, uning* $\| u(x,t) \|_{L_2(\Omega)}$ *normasi* $t \in [0,T]$ *bo'yicha uzluksiz funksiya bo'ladi.*

Endi parabolik tenglama uchun quyidagi boshlang'ich-chegaraviy masalani qaraylik: shunday $u(x,t) \in C(\overline{\Omega} \times [0,T])$ funksiya topilsinki, $u_t(x,t), A(x,D)u(x,t) \in C(\overline{\Omega} \times (0,T])$ bo'lib, u

$$u_t + A(x,D)u(x,t) = f(x,t), \quad x \in \Omega, \quad t > 0; \tag{16}$$

tenglamani,

$$u(x,0) = \varphi(x), \quad x \in \Omega; \tag{17}$$

boshlang'ich shartni va (9) chegaraviy shartlarni qanoatlantirsin.

6-teorema. *Aytaylik* $\tau > \dfrac{N}{2m}$ *va* $\varphi(x) \in D(\hat{A}^{\tau})$ *bo'lsin. Bundan tashqari, barcha* $t \in [0,T]$ *larda* $f(x,t) \in D(\hat{A}^{\tau})$ *bo'lib,*

$$F(t) = \| \hat{A}^{\tau} f(x,t) \|_{L_2(\Omega)}$$

funksiya t *bo'yicha* $[0,T]$ *da uzluksiz bo'lsin. U holda (16), (17), (9) masalaning yechimi mavjud bo'lib, u* $\overline{\Omega}$ *sohada tekis va absolyut yaqinlashuvchi*

$$u(x,t) = \sum_{k=1}^{\infty} [e^{-\lambda_k t} \varphi_k + \int_0^t e^{-\lambda_k (t-\xi)} f_k(\xi) d\xi] v_k(x), \quad t \in (0,T],$$

qator ko'rinishiga ega bo'ladi, bunda φ_k *va* $f_k(t)$ *lar mos Furye koeffisientlaridir.*

Uchinchi bob **"Subdiffuziya tenglamalari uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalar"** deb nomlangan. Uchinchi bobning birinchi bo'limida vaqt bo'yicha kasr tartibli hosilali va elliptik qismi ixtiyoriy elliptik differensial ifoda bo'lgan sudiffuziya tenglamasi uchun boshlang'ich-chegaraviy masala qaralgan.

Aytaylik, $\rho \in (0,1)$ o'zgarmas son bo'lib, $f(x,t), \varphi(x)$ funksiyalar va $b_{\alpha,j}(x)$ koeffitsientlar berilgan bo'lsin. Quyidagi

$$\partial_t^{\rho} u(x,t) + A(x,D)u(x,t) = f(x,t), \quad x \in \Omega, \quad t > 0; \tag{18}$$

tenglama,

$$\lim_{t \to 0} \partial_t^{\rho-1} u(x,t) = \varphi(x), \quad x \in \Omega; \tag{19}$$

boshlang'ich va

$$B_j u(x,t) = \sum_{|\alpha| \le m_j} b_{\alpha,j}(x) D^{\alpha} u(x,t) = 0, \qquad (20)$$

$$0 \le m_j \le m-1, \quad j = 1,2,...,l; \quad x \in \partial\Omega;$$

chegaraviy shartlar bilan berilgan masalani qaraymiz. Uchinchi bobning birinchi bo‘limida klassik Furye metodi bilan bu masalan yechimining mavjud va yagonaligi isbotlangan. Bunda tenglamaning o‘ng tarafi va boshlang’ich funksiyalarga mos Furye qatorini tekis va absolyut yaqinlashishini ta’minlovchi shartlar topilgan.

7-teorema. *Agar* $f(x,t) \in C(\Omega \times (0,\infty))$ *va* $\varphi \in C(\Omega)$ *bo‘lsa, (18)-(20) masala oshib borsa bitta yechimga ega.*

8-teorema. *Aytaylik* $\tau > \dfrac{N}{2m}$ *va* $\varphi \in D(\hat{A}^{\tau})$ *bo‘lsin. Bundan tashqari, barcha* $t \in [0,T]$ *uchun* $f(x,t) \in D(\hat{A}^{\tau})$ *bo‘lsin, va*

$$F(t) = \| \hat{A}^{\tau} f(x,t) \|_{L_2(\Omega)}$$

funksiya barcha $t \in [0,T]$ *lar uchun uzluksiz bo‘lsin. U holda (18)-(20) boshlang’ich-chegaraviy masalaning yechimi mavjud va u quyidagi qator ko‘rinishiga ega*

$$u(x,t) = \sum_{1}^{\infty} [\varphi_j t^{\rho-1} E_{\rho,\rho}(-\lambda_j t^{\rho}) + \int_0^t f_j(t-\xi)\xi^{\rho-1} E_{\rho,\rho}(-\lambda_j \xi^{\rho}) d\xi] v_j(x), \quad (21)$$

va qator $x \in \bar{\Omega}$ *da va barcha* $t \in (0,T]$ *lar uchun absolyut va tekis yaqinlashadi.*

Boshlang’ich-chegaraviy masala N o‘lchovli torda qaralgan holda, bu shartlarni nafaqat yetarli, balki zarur ekanligini osongina tekshirishimiz mumkin.

Haqiqatan, aytaylik $A(D) = \sum_{|\alpha|=m} a_{\alpha} D^{\alpha}$ o‘zgarmas koeffisientlarga ega bo‘lgan bir jinsli simmetrik nomanfiy elliptik differensial ifoda bo‘lsin. Differensial tenglama va uning boshlang’ich sharti quydagicha bo‘lsin

$$\partial_t^{\rho} u(x,t) + A(D)u(x,t) = f(x,t), \quad x \in \mathbb{T}^N, \quad t > 0; \qquad (22)$$

$$\lim_{t \to 0} \partial_t^{\rho-1} u(x,t) = \varphi(x), \quad x \in \mathbb{T}^N; \qquad (23)$$

(20) chegaraviy shartlar o‘rniga biz har bir x_j argumenti bo‘yicha 2π -davriylikka ega funksiyalarni qaraymiz va $\varphi(x)$ va $f(x,t)$ funksiyalar ham x_j o‘zgaruvchilari bo‘yicha 2π -davriylikka ega bo‘lsin deb faraz qilamiz.

9-teorema. *Aytaylik* $\tau > \dfrac{N}{2}$ *va* $\varphi \in L_2^{\tau}(\mathbb{T}^N)$ *bo‘lsin. Bundan tashqari, ixtiyoriy* $t \in [0,T]$ *uchun* $f(x,t) \in L_2^{\tau}(\mathbb{T}^N)$ *bo‘lsin va ushbu*

$$F(t) = \| f(\cdot,t) \|^2_{L_2^{\tau}(\mathbb{T}^N)}$$

funksiya $[0,T]$ *segmentda uzluksiz bo‘lsin. U holda (22)-(23) boshlang’ich-chegaraviy masalaning yechimi mavjud va u quyidagi qator ko‘rinishiga ega boladi*

$$u(x,t)=\sum_{n\in\mathbb{Z}^N}[\varphi_n t^{\rho-1}E_{\rho,\rho}(-A(n)t^{\rho})+\int_0^t f_n(t-\xi)\xi^{\rho-1}E_{\rho,\rho}(-A(n)\xi^{\rho})d\xi]e^{inx},$$

va bu qator $x\in\mathbb{T}^N$ *da va har bir* $t\in(0,T]$ *uchun absolyut va tekis yaqinlashadi.*

1-eslatma. *E'tibor beringki,* $\tau>\frac{N}{2}$ *bo'lganda, Sobolev joylashtirish teoremasiga asosan,* $L_2^{\tau}(\mathbb{T}^N)$ *dagi barcha funksiyalar* 2π*-davrli uzluksiz funksiyalar bo'ladi. Teskari* $\tau\le\frac{N}{2}$ *tengsizlikning bajarilishi esa* $L_2^{\tau}(\mathbb{T}^N)$ *da chegaralanmagan funksiyalar mavjudligini keltirib chiqaradi. Shuning uchun, bu teoremaning* $\tau>\frac{N}{2}$ *sharti yetarli shart bo'libgina qolmay, balki u zaruriy shart hamdir.*

Uchinchi bobning ikkinchi bo'limida N o'lchovli torda Riman-Liuvill kasr tartibli hosilasi ishtirok etgan subdiffuziya tenglamasi uchun boshlang'ich-chegaraviy masala o'rganilgan.

Aytaylik $\rho\in(0,1)$ o'zgarmas son bo'lsin. Quyidagi boshlang'ich-chegaraviy masalani qaraylik

$$\partial_t^{\rho}u(x,t)-\Delta u(x,t)=f(x,t),\quad x\in\mathbb{T}^N,\quad 0<t\le T, \tag{24}$$

$$\lim_{t\to 0}\partial_t^{\rho-1}u(x,t)=\varphi(x),\quad x\in\mathbb{T}^N. \tag{25}$$

Bu yerda chegaraviy shartlar o'rniga har bir x_j argumenti bo'yicha 2π-davriylikka ega bo'lish sharti qo'yilgan hamda $\varphi(x)$ va $f(x,t)$ funksiyalar ham x_j o'zgaruvchilari bo'yicha 2π-davriylikka ega funksiyalar bo'lsin deb faraz qilingan.

Uchinchi bobning birinchi bo'limidagi boshlang'ich funksiyaga qo'yilgan shart $\varphi\in L_2^{\tau}(\mathbb{T}^N)$, $\tau>\frac{N}{2}$, ko'rinishiga ega edi. Ushbu $\tau>\frac{N}{2}$ tengsizlik dissertatsiyaning yana ikkinchi va to'rtinchi boblarida ham uchraydi. Albatta, bu shartni $\varphi\in L_2^{\frac{N}{2}}(\mathbb{T}^N)$ bilan almashtirib bo'lmaydi, chunki bu holda $L_2^{\frac{N}{2}}(\mathbb{T}^N)$ sinfidagi funksiyalar, yuqoridagi 1-eslatmada aytilganidek, chegaralanmagan bo'lishi ham mumkin. Tabiiyki, quyidagicha savol tug'iladi: $\varphi\in L_2^{\tau}(\mathbb{T}^N)$, $\tau>\frac{N}{2}$ shartni, $\varphi\in C(\mathbb{T}^N)\cap L_2^{\frac{N}{2}}(\mathbb{T}^N)$ shart bilan almashtirish mumkinmi? Ushbu bo'limda buning mumkinligi isbotlangan. Shuningdek, uchinchi bobning birinchi bo'limida tenglamaning o'ng tomoni uchun qo'yilgan $\|f(\cdot,t)\|^2_{L_2^a(\mathbb{T}^N)}\in C[0,T]$ shartni $\|t^{1-\rho}f(\cdot,t)\|^2_{L_2^a(\mathbb{T}^N)}\in C[0,T]$ shart bilan almashtirish mumkinligi ko'rsatilgan.

10-teorema. *Aytaylik* $\varphi \in C(\mathbb{T}^N) \cap L_2^{\frac{N}{2}}(\mathbb{T}^N)$ *bo'lsin. Bundan tashqari, barcha* $t \in [0,T]$ *lar uchun* $f(x,t) \in L_2^a(\mathbb{T}^N)$, $a > \frac{N}{2}$, *bo'lib,* $\| t^{1-\rho} f(\cdot,t) \|^2_{L_2^a(\mathbb{T}^N)} \in C[0,T]$ *bo'lsin. U holda (24)-(25) boshlang'ich chegaraviy masalaning yechimi mavjud va quyidagi ko'rinishga ega*

$$u(x,t) = \sum_{n \in \mathbb{Z}^N} [\varphi_n t^{\rho-1} E_{\rho,\rho}(-|n|^2 t^\rho) + \int_0^t f_n(t-\xi)\xi^{\rho-1} E_{\rho,\rho}(-|n|^2 \xi^\rho) d\xi] e^{inx}, \tag{26}$$

bo'lib, bu qator barcha $t \in (0,T]$ *lar uchun* $x \in \mathbb{T}^N$ *bo'yicha absolyut va tekis yaqinlashadi. Bu yerda* φ_n *va* $f_n(t)$ *Furye koeffitsientlaridir. Bundan tashqari, bu qatorga* ∂_t^ρ *kasr tartibli hosilani va* A *operatorni ta'sir ettirganda ham xosil bo'lgan qator barcha* $t \in (0,T]$ *lar uchun* $x \in \mathbb{T}^N$ *bo'yicha absolyut va tekis yaqinlashadi.*

Uchinchi bobning uchinchi bo'limida N o'lchamli torda Caputo hosilasi qatnashgan subdiffuziya tenglamasi uchun boshlang'ich-chegaraviy masala Furye usuli yordamida o'rganilgan. O'rganilgan masala quyidagi ko'rinishga ega:

$$D_t^\rho u(x,t) + Au(x,t) = f(x,t), \quad x \in \mathbb{T}^N, \quad 0 < t \le T, \tag{27}$$

$$u(x,0) = \varphi(x), \quad x \in \mathbb{T}^N, \tag{28}$$

bu yerda $A = -\Delta$-Laplas operatori, f va φ lar esa berilgan 2π-davriy uzluksiz funksiyalardir. Chegaraviy shart o'rnida 2π-davriylik sharti olingan.
Masala Furye usuli bilan yechilgani uchun A operator sifatida to'la ortonormal xos funksiyalar to'plamiga ega bo'lgan istalgan elliptik operatorini olishimiz mumkin.

11-teorema. *Aytaylik* $a > \frac{N}{2}$ *va* $\varphi \in L_2^a(\mathbb{T}^N)$ *bo'lsin. Bundan tashqari,* $t \in [0,T]$ *lar uchun* $f(x,t) \in L_2^a(\mathbb{T}^N)$ *bo'lib,* $\| f(\cdot,t) \|^2_{L_2^a(\mathbb{T}^N)} \in C[0,T]$ *bo'lsin. U holda (27)- (28) boshlang'ich-chegaraviy masalaning yechimi mavjud va u*

$$u(x,t) = \sum_{n \in Z^N} [\varphi_n E_{\rho,1}(-|n|^2 t^\rho) + \int_0^t f_n(t-\xi)\xi^{\rho-1} E_{\rho,\rho}(-|n|^2 \xi^\rho) d\xi] e^{inx}, \tag{29}$$

ko'rinishdagi har bir $t \in (0,T]$ *da* $x \in \mathbb{T}^N$ *bo'yicha absolyut va tekis yaqinlashuvchi qator kabi aniqlanadi. Bundan tashqari,* D_t^ρ *va* A *operatorlar hadma-had ta'sir qildirilganidan keyin olingan qatorlar ham har bir* $t \in (0,T]$ *da* $x \in \mathbb{T}^N$ *bo'yicha absolyut va tekis yaqinlashadi.*

Ushbu teoremaga o'xshash natija Riman-Liuvill hosilasiga ega bo'lgan subdiffuziya tenglamasi uchun 10-teoremada keltirilgan edi. Ammo uchinchi bobning ikkinchi bo'limida $\varphi(x)$ boshlang'ich funksiya uchun topilgan shart ancha kengroq funksiyalar sinfini qarashga imkon beradi. Masalan, bir o'lchamli holda, uchinchi

